

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI MODELLASHTIRISH

Turopova Nigora Xolmurod qizi

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

nturopova@tersu.uz

Xo'jamurotov Murodbek Bayir o'g'li

Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston hududlarining eksport salohiyatining oshishi iqtisodiy o'sishga va yalpi hududiy mahsulotning o'sish darajasiga ta'siri o'rganilgan va modellashirilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, tashqi savdo, eksport, yalpi hududiy mahsulot ekonometrika, ekonometrik tahlil, ekonometrik modellashirish, testlar, empirik va nazariy ma'lumotlar.

МОДЕЛИРОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ЭКСПОРТА НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Абстрактный. В данной статье изучено и смоделировано влияние увеличения экспортного потенциала регионов Узбекистана на экономический рост и темпы роста валового регионального продукта.

Ключевые слова: Цифровая экономика, внешняя торговля, экспорт, валовой региональный продукт, ekonometrika, ekonometricheskii analiz, ekonometricheskoe modelirovaniye, testy, empiricheskiye i teoreticheskiye dannyye.

MODELING THE IMPACT OF EXPORT ON ECONOMIC GROWTH IN THE DIGITAL ECONOMY

Abstract. In this article, the impact of the increase in the export potential of the regions of Uzbekistan on economic growth and the growth rate of the gross regional product is studied and modeled.

Keywords: Digital economy, foreign trade, export, gross regional product, econometrics, econometric analysis, econometric modeling, tests, empirical and theoretical data.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

Iqtisodiyotning eng asosiy sohalaridan biri bo'lgan tashqi savdoni rivojlanishi mamlakatning barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini yanada yaxshilanishiga olib keladi. "Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish va hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi". Endi esa "Respublika hududlari va xorijiy mamlakatlar biznes vakillari o'rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish" zarurligi aytilgan bo'lib, bu ilmiy ishimizning yanada dolzarbligini oshiradi.

O'zbekiston hududlarining eksport hajmi va yalpi hududiy mahsuloti chiziqli regressiya usulida tahlil qilindi. Quyidagi jadvalda viloyatlar kesimida 2021 - yilda eksport hajmi va yaratilgan YaHM to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Raqamli iqtisodiyot – xo'jalik yuritishning zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy omili sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni hisoblanadi. Raqamlashtirish an'anaviy ho'jalik yuritish shakllriga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni, masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida maxsulot yetishtirishni va uni yetkazib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin. Raqamlashtirish jahon iqtisodiyotining o'sishiga olib keladi, masalan, nufuzli McKinsey Global Institute konsalting kompaniyasining hisob-kitoblariga ko'ra, eng yangi raqamli texnologiyalardan foydalanish 2025 yilga borib yalpi ichki mahsulot o'sishiga olib keladi. Pul oqimining aylanishi 3-6 trln dollarni tashkil etadi. Ayni paytda aksariyat yirik kompaniyalar raqamlashtirish texnologiyalariga ega. Raqamlashtirish iqtisodiyotni rivojlantirishda, iste'molchilar, davlat, umuman, jamiyat uchun katta imkoniyatlar ochib beradi. Raqamli iqtisodiyotni qo'llabquvvatlash bo'yicha dunyoning yetakchi davlatlari salmoqli tashabbuslar bilan chiqmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatda raqamli iqtisodning rivojlanishi bo'yicha o'z fikrlarini aytib o'tdi. Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349 sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonini ijro etish borasida, shuningdek, respublikamizda raqamli iqtisodiyotni davlat boshqaruv tizimiga tadbiq qilish uchun zamonaviy axborot texnologiyalarni jadal rivojlantirish bo'yicha sharoitlar yaratish, axborot

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

havfsizligini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2018 yil 31 avgustda "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni joriy qilish va yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" raqamli iqtisodiyotning maqsad va vazifalarini belgilab beradigan Qaror qabul qildi, hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832 03.07.2018 dagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida"gi . Qarorlarini ham shu tadbirlar jumlasiga kiritish mumkin. Ushbu qarorlarda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar, xususan, raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik sub'ektlarining yaqin hamkorligini ta'minlash ustuvor yo'nalashlar deb belgilangan. Bu masala bo'yicha o'zbek va xorijiy iqtisodchilar o'z ishlarida jiddiy fikrlar bildirib o'tganlar. Akademik S.S. Gulyamov va hammualliflar o'zlarining ilmiy risolasida "Raqamli iqtisodiyotga o'tish deganda komp'uyterlar va bilimlarga asoslangan holda jamiyat va iqtisodiyotning yangi turini barpo etishni tushunamiz", degan fikrni bildirib o'tadi . Olimlar raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonining asosiy tarkibiy qismlari sifatida ma'lumotlar bilan ishlashni amalga oshirib beradigan mobil ijtimoiy tarmoqlar, bulutli texnologiyalar, sensor tarmoqlar, buyumlar interneti hamda sun'iy intellekt texnologiyalarni ko'rsatib, tushunchalar berib o'tgan.

XULOSA

O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mamlakat hududlarining eksport va YaHMLarini statistik ko'rsatkichlar yordamida ilmiy o'rganish va ekonometrik modellar yordamida tahlil qilish va modellashtirish katta ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi. Eksport hajmi turli statistik usullar va metodlardan foydalanib o'rganish va ularni ekonometrik modellar yordamida tahlil qilish sohani rivojlanishida ilmiy asoslangan natijalarga erishishga zamin yaratadi. Raqamli iqtisodiyot quyidagilarda, yani yangi kadrlar va yangi ish joylari hosil bo'lishida, yangi korporativ madaniyat barpo etilishida, katta ma'lumotlar bazalari bilan ishlashda, sun'iy intellekt va intellektual boshqaruv tizimlarining hosil bo'lishida, ta'lim, ishlab chiqarish va boshqaruvdagi virtualizatsiya jarayonlari amalga oshirishda, buyumlar internetining keng miqyosda qo'llanilishida, mayning jarayoni hamda mustaqil biznes yuritish imkoniyatining yuzaga chiqishida, yangi pul-kredit tizimi va banklar faoliyatining

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

kengayishida, elektron tijorat va elektron biznesning rivojlanishida va boshqa holatlarda namoyon bo'ladi. Axborot texnologiyalari raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun bir qancha yangi tamoyil va yunalishlarni belgilab berdi. Bu soha mamlakatimizda ulkan salohiyatga ega bo'lib, unda axborot ustuvor tovar hisoblanadi va bu resurs umuman chegaralanmagan, tarmoq bozori ulkan va demokratik va, asosiysi, unda tarmoqlar chegaralari oson «yuvilib» ketadi, loyiha yoki kompaniya muvaffaqiyatlari xodimlar soni va moliyaviy aktivlar hajmiga bog'liq emas, raqobat kurashi shartlari o'zgaradi, chunki raqamli jamiyat muhitida tezkor intellektual yechimlar har qanday kuchli jismoniy bazadan ham ustun keladi. Chunki ehtiyojning yuksalishi bilan yangi talab paydo bo'ladi va u darhol qondirilmaydi. Bozor muvozanati ni ta'minlashning asosiy yo'llari: tovar ishlab chiqarishni talab darajasiga yetkazish orqali bozorni to'ydirish; yetarli tovarlar zaxirasini barpo etish; talabgir tovarlar narxini oshirish, o'tmay turgan tovarlar narxini pasaytirish; eksport va importning ortishi yoki kamayishi; aholi daromadlarining tovarlar va xizmatlar ko'payishiga qarab ortib borishi; mehnat unumdorligining ish haqiga nisbatan tezroq o'sishi. Bozor muvozanati ma'rifatli jamiyatda narxlar bilan bozorni tartibga solish orqali ta'minlanadi. Shu bilan birga bu siyosat pul emissiyasini boshqarish, uning qadrsizlanishining oldini olish, mamlakat to'lov balansini bir me'yorda saqlash kabi maqsadlarni ham o'z ichiga oladi. Respublikada barqarorlashtirish siyosatini ishlab chiqishda jahon tajribasida sinalgan yondashuvlar hisobga olinib, ishlab chiqarish sohalariga ustunlik berildi. Moddiy ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishida ularni tarkiban qayta qurish talablari ham ko'zda tutildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-yanvardagi Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Foyqдалanish manbai: <https://uza.uz/posts/3329>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349 sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. – Foyqдалanish manbai: <https://lex.uz/docs/3564970> “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali I son 2023-yil 125 ISSN: 2181-3965 VOLUME 2

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832 03.07.2018 yildagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori – Foyqdalanish manbai: <https://lex.uz/ru/docs/3806053>
4. Gulyamov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 386 b.
5. Буранова, Л. В. (2023). ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ИПОТЕЧНОГО ЖИЛИЩНОГО КРЕДИТОВАНИЯ. О'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 437-345.
6. Turopova, N. (2023). O 'zbekiston moliya tizimida mahalliy moliyaning o 'ziga xos xususiyatlari.
7. Turopova, N., & Jumanazarov, H. (2024). O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA GID HAMROHLIGI VA TARJIMONLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI. Молодые ученые, 2(9), 129-131.
8. Turopova, N., & Ochilov, J. (2024). MAKABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARI ORQALI BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'GATISH BORASIDA OLIV BORILGAN ILMIY TADQIQOT ISHLARI TAHLILI. Молодые ученые, 2(9), 124-128.
9. Turopova, N., & Daniyarov, I. (2024). O 'ZBEKISTONDA SHAXSIY OLIYAVIY JAMG 'ARMA YIG 'ISHDA OYLIK MAOSHNING O'RNI. Молодые ученые, 2(9), 60-62.
10. Turopova, N., & Buriyev, A. (2024). ASSESSMENT AND IMPLEMENTATION METHODS OF THE EFFECTIVENESS OF MARKETING ACTIVITIES. Молодые ученые, 2(9), 24-29.
11. Turopova, N., & Abdurahmonov, B. (2024). MARKETING: MARKETING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI. Молодые ученые, 2(9), 4-11.
12. Turopova, N., & Qudratov, I. (2024). INFLYATSIYA: O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INFLYATSIYA DARAJASI. Молодые ученые, 2(9), 91-97.
13. Turopova, N., & Jo'rayev, A. (2024). TALABA-YOSHLAR TA'LIM DASTURIDA IJTIMOY-GUMANITAR FANLARNI O 'RGATISH METODOLOGIYASI. Молодые ученые, 2(9), 63-66.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 4, 30 Апрель

14. Turopova, N., & Norbekov, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI VA AMALIY AHAMIYATI. *Молодые ученые*, 2(9), 103-106.
15. Turopova, N., & Norbayev, S. (2024). TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLARGA QILINGAN INVESTITSİYALAR TAHLILI VA SHU BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR. *Молодые ученые*, 2(9), 85-87.
16. Turopova, N., & Keldiyev, A. (2024). MAMLAKAT BANK TIZIMINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI. *Молодые ученые*, 2(9), 76-78.
17. Turopova, N., & Elomonov, H. (2024). O 'ZBEKISTONDA HUDUDLAR KESIMIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH HOLATI. *Молодые ученые*, 2(9), 36-42.
18. Turopova, N., & Jo'lliyev, M. (2024). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IQTISODIYOTNING TUTGAN O'RNİ. *Молодые ученые*, 2(9), 67-72.
19. Turopova, N., & Elmurodova, M. (2024). TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISHINING ISH O 'RNIGA TA'SIRI. *Молодые ученые*, 2(9), 33-35.
20. Turopova, N., & Misirov, T. (2024). O 'ZINI O 'ZI BOSHQARISH. *Молодые ученые*, 2(9), 111-113.
21. Turopova, N., & Jumayev, R. (2024). YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MASALALARI. *Молодые ученые*, 2(9), 73-75.
22. Turopova, N., & Choriyev, M. (2024). "ISLOM IQTISODIYOTI" VA "ISLOM MOLİYASI" TUSHUNCHALARI VA ISHLASH TARTIBI. *Молодые ученые*, 2(9), 30-32.
23. Turopova, N., & Ergasheva, F. (2024). TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI VA AXBOROT RESURLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI. *Молодые ученые*, 2(9), 43-45.